


**“TASDIQLAYMAN”**  
**“Transport ilmiy-tadqiqot markazi”**  
**MChJ ta’ sischisi**



**O‘zbekiston Respublikasi**  
**Transport vazirligi**

I.R. Maxkamov

2024-yil “1” Mart

**“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” MChJ**  
**Ta’ sischisining 2 -son**  
**QARORI**

**Toshkent shahri**

2024-yil “1” Mart

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig‘ilishi jamiyatning ustavida belgilangan muddatlarda, lekin yiliga kamida bir marta o‘tkazilishi, Jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig‘ilishi jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan chaqirilishi, Jamiyatning ustavida jamiyat faoliyatining yillik natijalari tasdiqlanadigan jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig‘ilishini o‘tkazish muddati belgilanishi, Jamiyat ishtirokchilarining mazkur umumiy yig‘ilishi moliya yili tugaganidan keyin kechi bilan olti oy ichida o‘tkazilishi kerakligi belgilangan.

Mazkur Qonunning 37-moddasiga asosan, bir ishtirokchidan tarkib topgan jamiyatda jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi vakolatlari jumlasiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar jamiyatning yagona ishtirokchisi tomonidan yakka tartibda qabul qilinishi va yozma ravishda rasmiylashtirilishi belgilab qo‘yilgan.

Shunga ko‘ra, Jamiyatning yuqori boshqaruv organi (Ta’ sischi) qaror qabul qilish uchun quyidagi masalalarni ko‘rib chiqdi:

- 1. Markaz direktorining 2023-yil yakuni bo‘yicha biznes-reja ko‘rsatkichlari bajarilishi yuzasidan hisobotini tasdiqlash.**
- 2. Markazning 2023-yil yakuni bo‘yicha buxgalterlik balansi, foyda va zararlar hisobini tasdiqlash.**
- 3. Markazning 2024-yil uchun biznes-rejasini tasdiqlash.**
- 4. Sof foydani taqsimlash masalasini ko‘rib chiqish.**
- 5. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori lavozimiga U. Iminov nomzodini tasdiqlash.**

**Kun tartibidagi birinchi masala** bo‘yicha Jamiyat Ta’ sischisi Markaz direktori U. Iminovning 2023-yilda amalga oshirilgan chora-tadbirlar, erishilgan

natijalar, biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi bo'yicha hisobotini ko'rib chiqdi.

“Uzavtotranstexnika” IIM DUKning 2023-yil uchun mahsulot (xizmat)lar sotish rejasi soliqlarsiz jami sof tushum miqdori 8 958 400,54 ming so'm, ya'ni o'sish ko'rsatkichlari 111 % etib belgilangan.

Shuningdek, “Uzavtotranstexnika” IIM DUKning 2023-yil uchun moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar rejasi soliqlarsiz jami daromad IV chorak yakunlariga qadar 9 063 170,52 ming so'm, ya'ni o'zgarish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 111 % etib belgilangan.

Shu jumladan, sof tushum 8 958 400,54 ming so'm, o'zgarish sur'ati 111 %, moliyaviy faoliyat daromadlari 104 769,98 ming so'm, o'zgarish sur'ati 115 % etib belgilangan.

2023-yil uchun moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar rejasiga asosan, sof foyda IV chorak yakunlariga qadar 26 690,84 ming so'm, ya'ni o'zgarish koeffitsiyenti 266 % etib belgilangan.

Xo'jalik shartnomalari doirasida korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda tadqiqot ishlari ham olib borilmoqda.

1. “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati bilan “Разработка нормативного документа (взамен отмененного нормативного документа Ўз РХ 88.20-01:2003 согласно постановлению Агентства «Узстандарт» за № 05-804 от 13.12.2016 года) определяющий порядок списания и нормирования расхода топлива при эксплуатации автомобильного и подвижного состава и строительно-дорожных машин и согласование его с соответствующими органами” mavzusidagi ishlarni bajarish uchun 2022-yil 31-avgustda 19/2022-TR-sonli shartnoma imzolangan.

Hozirda, NKMK tasarrufidagi avtotransport vositalari va yo'l-qurilish texnikalari uchun yoqilg'i sarfi me'yorlarini o'rnatish bo'yicha hujjat loyihasi tayyorlanib, NKMK qoshidagi transport boshqarmalari bilan kelishilmoqda. Bugungi kunda taraflarning imzolangan hujjatlariga asosan shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarning umumiy hajmi 90 foizni tashkil qiladi.

2. Shuningdek, markaz tomonidan quyida keltirilgan mavzular bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda:

Jamoat transportida yo'lovchilarni tashishni amalga oshirishda aholiga transport xizmatlari ko'rsatish Minimal transport standartini joriy qilish;

Davlat darajasida transport sohasida audit tizimini joriy qilish;

Atrof-muhit va aholi salomatligiga avtotransport vositalarining shovqin darajasi ta'sirini kamaytirish;

Avtomobil transporti va yo'l infratuzilmasi sohasida kompleks intellektual transport tizimlarini joriy qilish bo'yicha tartib ishlab chiqish.

2023-yil yakuniga qadar laboratoriyalar tomonidan quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Laboratoriya nomi	Korxonalar va tashkilotlar	2023-yilda xizmat ko'rsatilgan korxonalar soni				Umumiy shartnomalar soni
		I	II	III	IV	Jami
1- Laboratoriya (Bosib o'tilgan yo'l masofasini o'lchash)	Avtobus saroyi	0	8	0	8	16
	Xususiy korxonalar	0	0	2	2	4
2- Laboratoriya (Yoqilg'ini sarflash me'yorlarini belgilash)	Korxonalar va tashkilotlar	13	16	7	24	60
3- Laboratoriya (SPS laboratoriyasi)	Korxonalar va tashkilotlar	6	7	15	3	31
4- Laboratoriya (Chip karta)	Korxonalar va tashkilotlar	3945	3208	2956	2448	12557

Markaz hamda Ruminiyaning "S.C.Certsign S.A." kompaniyasi o'rtasida 2022-yil 26-avgustda tuzilgan 45/V77E/22152S-sonli shartnomaga muvofiq Markaz tomonidan raqamli taxograflarda foydalaniladigan kartochkalar uchun 2023-yil yanvar-dekabr holatiga jami 12 557 ta kartochkaga buyurtma berilgan bo'lib, joriy yil mobaynida jami 12 207 ta kartochka qabul qilingan.

Rejalashtirilgan mahsulot xizmatlari miqdoriga ko'ra 8 958 400,54 ming so'm tushum rejalashtirilgan. Shundan 2023-yil yakuni bo'yicha amaldagi tushum 10 851 449 ming so'mni, ya'ni o'sish ko'rsatkichi 121 %ni tashkil etdi.

#### **Kun tartibidagi birinchi masala bo'yicha Ta'rischi qarori:**

1. "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" MChJ direktori U. Iminovning 2023-yil yakuni bo'yicha biznes-reja ko'rsatkichlarining bajarilishi yuzasidan hisoboti tasdiqlansin.

2. "Transport ilmiy-tadqiqot markazi" MChJ direktori (U. Iminov) 2023-yil yakunida xarajatlar biznes-reja doirasida amalga oshirilishini hamda debitor va kreditorlik qarzlari keskin kamaytirilishini ta'minlasin.

**Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha Ta'rischi tomonidan** Markazning 2023-yil yakuni bo'yicha balans va moliyaviy natijalar ko'rsatkichlari ko'rib chiqildi, aktivlar 17 641,522 ming so'mni, shu jumladan, asosiy vositalar 2 618,556 ming so'mni tashkil etadi. Asosiy faoliyat daromadlari 10 851,449 ming so'mni, moliyaviy faoliyat daromadlari 157 964 ming so'mni, tannarx 7 180 876 ming so'mni, davr xarajatlari 1 984 542 ming so'mni tashkil etgani hamda yil yakuni bo'yicha sof foyda miqdori 874 748 ming so'm etib belgilangani qayd etildi.

(Markaz balans va moliyaviy natijalari hisoboti ilova qilinadi).

#### **Kun tartibidagi ikkinchi masala bo'yicha Ta'rischi qarori:**

“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2023-yil yakuni bo’yicha buxgalterlik balansi, foyda va zararlar hisobi jadvali tasdiqlansin.

**Kun tartibidagi uchinchi masala** Ta’sischi tomonidan ko‘rib chiqildi.

“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining tasdiqlangan Ustavi 12-bandiga asosan Ta’sischi vakolati doirasiga har yili Markazning biznes-rejasini tasdiqlash, uning bajarilish jarayoni to’g’risida ijro etuvchi organning hisobotini tinglash kiritilgan.

Ta’sischi tomonidan “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2024-yilga mo’ljallangan biznes-rejasi ko‘rib chiqildi, jumladan asosiy faoliyatning jami daromadlari 16 477 308 ming so‘m, xarajatlari 15 757 949 ming so‘mni tashkil etishi rejalashtirildi. (*jadvalga asosan*)

**Kun tartibidagi uchinchi masala bo’yicha Ta’sischi qarori:**

1. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2024-yilga mo’ljallangan biznes-rejasi tasdiqlansin.

2. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori U. Iminov Markazning 2024-yilga mo’ljallangan biznes-rejasi ko‘rsatkichlari bajarilishi yuzasidan nazorat o‘rnatilishini ta’minlansin.

**Kun tartibidagi to‘rtinchi masala** Ta’sischi tomonidan ko‘rib chiqildi.

“Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2023-yil balans ko‘rsatkichlariga asosan jami yalpi daromad 3 670 574 ming so‘mni tashkil etdi.

Barcha ko‘rsatkichlar jadval asosida ilova qilingan.

**Kun tartibidagi to‘rtinchi masala bo’yicha Ta’sischi qarori:**

1. “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2023-yil foyda ko‘rsatkichlari ma’qullansin.

2. 2024-yil davomida o‘shish koeffitsienti ko‘rsatkichlari joriy yakunlanayotgan yilga nisbatan past bo‘lmagan miqdorda bajarilishi ta’minlansin.

3. Markazning 2023-yil davomidagi foydasini 100 % miqdorida korxonani rivojlantirish, laboratoriyalar faoliyatini kengaytirish va yaxshilashga, “Taxografni ta’mirlash, sozlash va kalibrlash yo‘nalishi”ni tashkil qilishga, shuningdek, Transportda tajriba-sinov va sertifikatsiyalashtirish laboratoriyasida “SPG-3 turdagi gazballonlarni sinovdan o‘tkazish” yo‘nalishini ochishni tashkillashtirishga yo‘naltirilsin.

4. Amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar bo’yicha korxonaning maqsadli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilishi ta’minlansin.

**Kun tartibidagi beshinchi masala** Ta’sischi tomonidan ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi boshlig‘ining 2023-yil 18-iyuldagi

“O‘zavtotranstexnika ilmiy-ishlab chiqarish markazi” davlat unitar korxonasini mas’uliyati cheklangan jamiyatiga o‘zgartirish to‘g‘risidagi 55-son buyrug‘iga asosan, “O‘zavtotranstexnika ilmiy-ishlab chiqarish markazi” davlat unitar korxonasi qayta tashkil etish yo‘li bilan “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga o‘zgartirilgan va “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati “O‘zavtotranstexnika ilmiy-ishlab chiqarish markazi” davlat unitar korxonasining shartnomalari, huquqlari va majburiyatlari bo‘yicha huquqiy vorisi hisoblanishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Mazkur buyruqning 5-bandiga asosan, “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib Iminov Umidjon Muradjanovich tayinlangan.

Shuningdek, “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati Ta’sischi Transport vazirligining 2023-yil 18-iyuldagi 1-son qaroriga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent shahar hududiy boshqarmasi boshlig‘ining 2023-yil 18-iyuldagi “O‘zavtotranstexnika ilmiy-ishlab chiqarish markazi” davlat unitar korxonasini mas’uliyati cheklangan jamiyatiga o‘zgartirish to‘g‘risidagi 55-son buyrug‘iga muvofiq, “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori vazifasini vaqtincha bajaruvchi etib Iminov Umidjon Muradjanovich tayinlangan.

Mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan Ustavning XII bandiga asosan, Jamiyatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish Markaz Ta’sischi vakolatiga kirishi, shuningdek, XIV bandiga asosan Jamiyat ijro etuvchi organi rahbari (direktor) kuzatuv kengashining tavsiyasi asosida yagona ishtirokchi tomonidan uch yil muddatga saylanishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 1-martdagi “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi 310-II son Qonunining 39-moddasiga asosan Jamiyatning yakkaboshchilik asosidagi ijro etuvchi organi (direktor) jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig‘ilishi tomonidan jamiyatning ustavida belgilangan muddatga saylanishi belgilangan.


### **Kun tartibidagi beshinchi masala bo‘yicha Ta’sischi qarori:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 1-martdagi “Mas’uliyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi 310-II son Qonuniga hamda “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining tasdiqlangan Ustaviga asosan “Transport ilmiy-tadqiqot markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyati direktori lavozimiga Iminov Umidjon Muradjanovich uch yil muddatga tayinlansin.


2. Mazkur Qaror bilan belgilangan o‘zgarishlar yuzasidan Markazning tegishli hujjatlariga o‘zgarishlar kiritilishi ta’minlansin.

**Kelishildi:**


Vazir o'rinbosari

  
(imzo)

I. Abdugafarov


Vazirning ma'naviyat va davlat tili  
masalalari bo'yicha maslahatchisi  
(imzo)

D. Djalalova


Moliya-iqtisod va tarif boshqarmasi  
boshlig'i  
(imzo)

A. Ximmatov

Yuridik bo'lim boshlig'i

  
(imzo)

S. Gafarov

**Kiritildi:**"Transport ilmiy-tadqiqot markazi"  
MCHJ direktori v.b.  
(imzo)

U. Iminov